# “Shahartepa” mahallasidagi 4.5 kilometr ichki koʻchalar asfaltlashtirilmoqda

Jahon bankining Xalqaro taraqqiyot uyushmasi va Osiyo infratuzilmaviy investisiyalar banki ishtirokida “Qishloq infratuzilmasini rivojlantirish” loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisidagi Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga muvofiq Qoʻshtepa tumanidagi “Shahartepa” mahallasining infratuzilmasi yanada yaxshilanmoqda.

Xususan, ushbu mahallada ichki koʻchalarning 4,5 kilometr qismini asfaltlashtirish uchun amaliy ishlar boshlandi. Hozirda koʻchalarda tekislash ishlari olib borilmoqda.

2024-12-19 08:51:11